



MATEMATIKA O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4-kurs 3-21-guruh talabasi Toshmatova Rayhona Murod qizi

E-mail: rayhonatoshmatova1@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası

Assistent o'qituvchisi Umarova Dilafruz Anvarovna

E-mail: umarovadilafruz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda innovatsion metodlar, yangi o'rgatish usullari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, o'quvchilarda matematik hisob -kitob ko'nikmasini shakllantirishda o'quv jarayonining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *matematika, innovatsion yondashuv, metod, ta'lim, didaktik o'yinlar, mantiqiy fikrlash*

Аннотация: *В статье представлена информация об инновационных методах и новых методах обучения математике учащихся с аналитическим типом обучения. Целью также является определение важности процесса обучения для развития у этих учащихся навыков математических вычислений.*

Ключевые слова: *математика: инновационное обучение, метод, образование, дидактические игры, логическое мышление*

Abstract: *This article provides information about innovative methods and new teaching methods in teaching mathematics to students with analytical learning processes. It also identifies the importance of the learning process in developing mathematical calculation skills in students.*

Keywords: *mathematics: innovative instruction, method, education, didactic games, logical thinking*

Kirish



Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish orqali fanlarni o'qitish sifatini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, matematika kabi mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiruvchi fandan samarali natijalarga erishish uchun innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Matematika ta'limida innovatsion yondashuv deganda, o'quv jarayonini interaktiv, ijodiy va texnologik jihatdan rivojlantiruvchi usullar majmuasi tushuniladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi va amaliy masalalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika 1-sinfdanoq o'rganiladi. O'quvchilar bu fanni o'qitishda, tushuntirish jarayonida Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, ko'rgazmali vositalaridan, tarqatma materiallardan hamda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish ancha samarali hisoblanadi.

Mamlakatimiz bo'ylab umumta'lim maktablariga katta e'tibor qaratilib, maktablarimizni jahon andozalari darajasida jihozlash ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim muassasalari, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida yangi vazifalar, ya'ni fanni o'zlashtirish sifatini oshirish vazifalari turibdi. Shu munosabat bilan matematika o'qitishda turli metodlardan foydalaniladiki, ularning asosiy maqsadi matematika o'qitishni joriy etish va o'zlashtirishdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf matematika darslarini yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'tishda kompyuterlardan foydalanib, multimedia imkoniyatlari asosida dars o'tish noan'anviy dars turlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarga matematikani o'rgatishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish ham yaxshi natijalarga beradi. Masalan:

"Zinama-zina" metodi. Bu asosan o'quvchilarni tezkorlik, chaqqonlik va zukkolikka chorlaydi. Bu o'yinning borishi quyidagicha: doskaga zina rasmi chiziladi. O'quvchilar 2 guruhga bo'linishadi, zinalarga o'qituvchi tomonidan turli xil misollar yozilgan bo'ladi. Misollarni navbatma-navbat bajarish orqali yuqoriga



ko'tarilib boradi. Birinchi yuqoriga yetib kelgan guruh g'alaba qozonadi. O'quvchilar yechgan misollar sinf jamoasi bilan birga tekshiriladi. G'olib guruh esa rag'batlantiriladi.

"Qochish xonasi" didaktik o'yini. Bu o'yin shaklidagi ta'limiy faoliyat bo'lib, o'quvchilar turli topshiriqlar va jumboqlarni yechib, xonadan chiqishi yoki muammoning yechimini topishi uchun cheklangan vaqt ichida ishlaydi. Bu o'yinni matematika darsida qanday qo'llash mumkin? Siz sirli laboratoriyadasiz. Chiqish eshigi qulflangan. Qulfni ochish uchun 5 ta kodni topishingiz kerak. Kod bu har bir yechgan misolning natijasidir. Bu o'yinning afzalliklari: matematika bilan real hayotni bog'lash imkonini beradi, o'quvchilarni mustaqil va jamoada ishlashga o'rgatadi, fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni oshiradi.

"O'z yo'lingni tanla!" didaktik o'yini. Bu interaktiv ta'limiy o'yin bo'lib, unda o'quvchi berilgan tanlovlar asosida o'z "ta'lim yo'li" ni tanlaydi. Har bir tanlov o'quvchini boshqa yo'nalishga olib boradi. Har qaror muammo yechimi matematik hisob-kitob yoki mantiqiy tahlilga bog'liq bo'ladi. Misol uchun tenglamalar mavzusida bu o'yindan foydalanishimiz mumkin: Sehrli uyda eshiklar yozilgan. Har bir eshikni ochish uchun oddiy tenglamani yechib, to'g'ri kalitni tanlash kerak. Har noto'g'ri tanlov adashgan yo'lga olib boradi.

Bosqich-1. Kirish eshigi

Savol: $X+5=9$

- A) $x=4$ --> «To'g'ri kalit, oldinga o'tasiz»
- B) $x=3$ --> «Yolg'on eshik, qayta urinib ko'ring»
- D) $x=6$ --> «Bu eshik ochilmadi»

Bosqich-2. Sehrli bog'

Savol: $12-x=7$

- A) $x=5$ --> «To'g'ri javob, keyingi darvozani topdingiz»
- B) $x=6$ --> «Bu yo'l tugadi, orqaga qayting»
- D) $x=4$ --> «Boshqa yo'lga tushib qoldingiz»

Bosqich-3. Qulflangan sandiq

Savol: $2 \times x = 10$



A) $x=5 \rightarrow$ «Zo'r,sandiq ochiladi, ichidagi mukofot bor!»

B) $x=6 \rightarrow$ «Sandiq ochilmadi, boshqa kalitni sinab ko'ring»

D) $x=4 \rightarrow$ «Sandiq qimirlamadi»

O'yin yakunida To'g'ri javoblar 1-bosqich:4,2-bosqich:5,3-bosqich:5.

Kod:455.O'quvchi g'alaba qozondi.

Bundan tashqari STEAM texnologiyasi ham innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi.STEAM so'zi bu qisqartma so'z bo'lib,quyidagi fanlarni birlashtiradi:

S-science(fan)

T-technology(texnologiya)

E-engineering(muhandislik)

A-art(san'at)

M-mathematics(matematika)

Ya'ni STEAM fanlararo integratsiyalangan o'qitish modelidir.Bu yondashuv orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy va hayotiy faoliyat bilan bog'lab o'rganadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohishistaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarni o'rganish va nazariy ma'lumotlarni tayyorlash, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Abdullayeva S."Innovatsion ta'lim texnologiyalari".Toshkent.2020



- 2.Divanov M.S.,Alimova S.Q.,Asimov O.N Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.
- 3.Jumayev M.E.,Tadjiyeva Z.G'.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi."Fan va texnologiya".2005
- 4..Shodmonov Yo.G'."Ta'limda zamonaviy metodlar"Toshkent.2019
5. .R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voriz-nashriyot" 2013. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
6. Dilafruz Anvarovna, "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
7. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
8. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49